

O'zekspomarkazga tashrif

Bugun 2021-yil 7-aprel kuni Toshkent shahridagi "O'zekspomarkaz" Milliy ko'rgazmalar majmuasida "INNOPROM. O'zbekistonda katta sanoat haftaligi" xalqaro sanoat ko'rgazmasi bo'lib o'tmoqda. O'zbekistonda ilk bor o'tkazilayotgan mazkur keng ko'lamli tadbir tashkilotchilari - O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Sanoat va savdo vazirligidir. O'zbekiston, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Chexiya, Yaponiya, Ozarbayjon, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Armaniston va boshqa mamlakatlar hukumat va ishbilarmon doiralari delegatsiyalari qatnashayotgan ushbu tadbirda bugungi kundagi eng zamonaviy texnologiyalar, qishloq va suv xo'jalik texnikalari va maxsulotlari namoyish etilmoqda.



Yangi texnika va elektrotexnik jihozlar bilan tanishish maqsadida Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti fakulteti, "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasi assistenti Aytbayev Nurlan va assistent Sh.Yusupovlar boshchiligidagi bir guruh talaba - yoshlari ko'rgazmaga tashrif buyurishdi. Talabalar ko'rgazmaning asosiy bo'limlari orasida transport va energetika, shaharlar uchun sanoat shuningdek elektrotexnika sanoatlari texnikalari bilan tanishib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassislardan yetarlicha javoblar olishdi.



**Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish kafedrasi dotsenti O'.Xaliquzarov
axboroti**

TIQXMMI matbuot xizmati